



KUSHON DAVLATI

Boyto'rayev Sirojiddin Usmon o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

Saydullayev Hasan Islom o'g'li

Gulboyev Muxammadi To'lqinovich

Mamarajabov Nodirbek Qodir o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada Kushon davri Markaziy Osiyo xalqlarini moddiy va ma'naviy madaniyatida jiddiy o'zgarishlar bo'lganligi bilan izohlanadi. Buyuk Kushonlar saltanatining taqdiri, ma'naviyati nuqtai nazaridan ayanchli tugadi, ya'ni o'z davrida uning tarixi va madaniyati deyarli yozilmadi. U haqda qadimgi ma'lumot juda kam, yozuv yodgorliklari ham unchalik ko'p emas.

Kalit so'zlar: Kattanahor, Zartepa, Zang kanali, Gaofu, yuechji, Xan, Qoratepa, Peshovar, Guyshuan, Tuysuan.

Kirish. Kushon davlatining paydo bo'lishi uzoq vaqt olimlar orasida katta ilmiy munozaralarga sabab bo'lib kelgandi. Bu afsonaviy tuyulgan podsholik tarixini o'rganish o'tgan asrdayoq boshlangan edi. Miloddan avvalgi I asrga kelib Katta Yuyechji uyushmasidagi beshta xokimlikda Tuysuan (Kushon) xokimligi ancha kuchayib va xudidi kengayib bordi. «So'nggi xon sulolasi tarixi» (Xitoy) ma'lumotlariga ko'ra, «Guyshuan xokimi Kloqzyuko qolgan to'rtta xokimlikni birlashtirib o'zini Buyshuan xokimi» deb e'lon qildi. Kushon davlati podsholari ichida eng mashhuri Kanishka hisoblanadi. Uning xokimlik davrida Kushonlar saltanati yanada gullab-yashnadi. Kanishna davrida Panjob, Kashmir viloyatlari mamlakatga qo'shib olinadi. Mamlakatning poytaxti esa Peshovar (Afg'oniston) atrofida edi. Mamlakatning hududi Shimimoliy Xindiston, Afg'oniston, Markaziy Osiyodagi ko'pgina viloyatlar, Sharqiy turkistondan iborat edi. Sima Szyanning yozishicha, «Kanishka podsholik qilgan davrda uning shon-shuhrati qo'shni mamlakatlarga yoyildi». Mamlakatning xarbiy qudrati ko'pchilik tomondan tan olindi. Xitoyning g'arb tomonidagilar ham Kanishkaning hokimligini tan olib, unga o'z garovga qo'yilgan odamlaridan yuborar edi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Markaziy Osiyoda mil. avv. IV-II asrlarda oramiy yozuv asosida Xorazm, Parfiya va So'g'd yozuvlari paydo bo'ladi. Kushon davriga kelib ular safiga yanabir yozuv-Kushon (Baqtriya) yozuvi paydo



bo'ladi. Dastlabki yodgorliklar Ayritomda va Ko'xna Termizda 30-yillarda ochilib, 60-yillarda davom ettirildi. Keyinchalik ko'xna Termiz yaqinidagi Qoratepa buddiylik ibodatxonasi, Fayoztepa, Xolchayon va Dalvarzin ko'xna shaharchalar ochilib nixoyat darajada yuksak bo'lgan kushon madaniyati butun dunyoga mashhur bo'ldi. Ayritom ko'xna shahrining topilgan o'ylarning Kesh tog'iga ishlangan tosh tasvirlar (sharshara) asrimizni 30-40 yillaridayoq ma'lum edi. Bu peshtoqlarda gullarga burkangan, musiqa asboblari chalib turgan qizlar va do'mbira chalib turgan bolalarning tasviri tushurilgan. Surxondaryo viloyatining Denov shahri paxta dalalarining birida qachonlardir yirik shahar bo'lgan Xolchayon yodgorligining qoldiqlari saqlanib qolgan. Shaharlarning paydo bo'lishi mil. avv. I ming yillikning o'rtalariga to'g'ri keladi. Milloddan avvalgi 250yilda vujudga kelgan Yunon-Baqtiriya podsholigiga O'rta Osiyoning katta yerlari qatori Surxon vohasi ham qaragan. Bu podsholik davrida Surxandaryoda ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlar rivojlanib, sinfiy tabaqalanish ham kuchaydi. Shaharlar ravnaq topdi. Hunarmandchilik va tashqi savdo yuksaldi. Yunon, Hind va Turon xalqlari madaniyati omuhtalashib, o'ziga xos yuksak madaniyat vujudga keldi. Shu davrga oid ko'hna binolarningharobalari Termiz atroflaridan ham topilgan.

Milod boshlarida Surxandaryo Kushonlar davlati tarkibiga kirdi. Kushonlar dastlab Toxarlar davlati o'rnida bir asr davomida 5 qabilaga bo'linib yashaganlar. Bulardan Guyshuan (kushon) qabilasi yabg'uziy (hukumroni) Kudzula Kadfis milodiy 1-asrda qolgan 4 qabilani bo'y sundirib, o'zini hukumdor deb elon etdi. U Surxandaryodagi Dalvarzintepani poytaxt qiladi. Milod boshlarida Xitoydan Kushon podsholigi mulklari, jumladan Dalvarzintepa, Termiz orqali O'rta dengiz sohili mamlakatlariga dastlabki karvon yo'li Buyuk ipak yo'lining janubiy tarmoqlaridan biri o'tgan edi. Bu yo'l tashqi savdo va mamlakatlararo madaniyatning rivojlanishida juda katta ahamiyat kasb etdi. Kushon podsholigi markazlashgan quldorlik davlatiga aylandi. Aholi asosan budda dinining Mahayana mashabiga etiqod qilgan. **Tadqiqot metodologiyasi.** Dalvarzintepadan topilgan budda haykali shundan dalolat beradi. Kushon davlatining asoschisi Kudzula Kadfis tezda Hindistonni bosib oldi va shimoliy Baqtryani o'ziga bo'ysundirdi. Kadfis II, ayniqsa, Kanishka podsholigida Kushon davlati kengayib, o'z davrida Rim, Parfiya Xan (Xitoy) saltanatlari bilan tenglashadigan qudratli saltanatga aylandi. Hozirgi butun Hindiston, Pokiston, Afg'oniston, O'rta Osiyoning janubiy yerlari unga qaragan. Kushon davlati miloddan avvalgi I-asrning 2-yarmidan milodning III-asri o'rtalarigacha hokim surdi.



Surxandaryo hududida Kushon davriga oid arxiologik yodgorliklar juda ko'p va xilma hildir Axomoniylar va Yunon - Baqtriya davridan bu yerda hozircha 40 manzil shahar ma'lum bo'lgan bo'lsa, Kushon davriga oid 120 dan ortiq shahar va qishloq aniqlandi. Aholi asosan Sherabod va Surxandaryo havzasi yoqalab joylashgan edi. Aholining joylashishi, katta kichik shaharlarning vujudga kelishi sug'orish shahobchalari bilan bog'liq, albatta.

Sug'orish havzalaridagi markaz shaxarlar atrofida katta kichik shaxarchalar, qarorgohlar joylashib, ular har jihatdan markaz shaxarga bo'y sunar edi. Markaz shaxarlar esa o'z navbatida Surxandaryodagi eng yirik shaxar -Termizga qaram edi. Shu tarzda aholi turar joylari katta shaxar (Chog'oniyon ,Termiz) o'rtacha shaxar (Dalvarzintepa, Zartepa) shaxarcha (Jondavlattepa, Talashgantepa va boshqalar) yirik va mayda qishloqlarga bo'lindi. Topilgan 120 yodgorlikdan 40 tasini katta shaxarlar jumlasiga kiritish mumkin.

Miloddan avvalgi I - milodiy III asrlarda hukmronlik qilgan Kushon podsholigi nafaqat Vatanimiz tarixida, balki butun Markaziy Osiyo tarixiy o'lkalari xalqlari iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida muhim o`rin tutgan davlatlardan biri sanaladi. Kushon podsholigiga asos solgan qabilalar tarixiy manbalarda yuechji(yovchi) va toxarlar deb nomlangan. Miloddan avvalgi II asrning to`rtinchi choragida asosan Baqtriyada hukmron bo`lgan Yunon - Baqtriya shohligi Markaziy Osiyoning shimoliy hududlarida iste'qomat qilgan yuechji qabilalarining yurishi tufayli inqirozga uchragan. Milodiy I asrga kelib, Baqtriyada besh katta urug` (Xyumi, Shuanmi, Guyshuan, Xeytun va Gaofu - yoki boshqa bir manbada Gaofu o`rnida Dumi) ga bo`linib yashagan yuechji qabilalari Kudzula Kadfiz tomonidan Guyshuan- Kushon urug`i qo`l ostida yagona davlatga birlashtirilgan. Kushon davlatining shimoliy chegarasi Janubiy Hisor tog` tizmasiga kirgan Boysuntog` hisoblanib, Kushon hukmdorlari o`z davlatining shimoliy chegaralarini mustahkamlash borasida ham tinimsiz faoliyat ko`rsatganlar.

Boysuntog`dagi " Temir darvoza" va uning bilan bog`liq mudofaa istehkomlari ana shunday inshootlardan biri hisoblanadi. Vima Kadfiz va ayniqsa, Kanishka I hukmronligida bu davlat tarkibiga Shimoliy Hindiston va Sharqiy Turkiston yerlari ham kiritilgan va natijada Kushon davlati Ko`hna Dunyoning Rim imperiyasi, Parfiya va Xan Xitoyi bilan bir qatorda turgan buyuk davlatga aylangan. Milodiy III asr oxirida ichki ziddiyatlar va ayniqsa, sosoniylar Eroni qo`shinlarining Kushonshahar, ya'ni Baqtriyani egallashlari tufayli Kushon davlati inqirozga yuz tutgan. To`rt asr davomida markazlashgan davlatning mavjudligi Baqtriyada,



shu jumladan, uning tarkibiy qismi boʻlgan Surxon vohasida ham iqtisodiy va madaniy hayotning barcha jabhalarida yuksalishga olib kelgan.

Miloddan avvalgi I - milodiy I asrlarda Surxon vohasi jadal oʻzlashtirilgan, yirik kanallar qazilgan (Kattanahor), mavjud sugʻorish inshootlari kengaygan (Zang kanali), yangi shaharlarga asos solingan (Zartepa) yoki Termiza (Termiz) va Dalvarzintepa singari shaharlar hududiy jihatdan kengaygan. Kushon davri shaharlari loyiha asosida bunyod etilgan ikki qism, ya'ni arki a'lo va unga

tutash asosiy shahar qisimlaridan iborat boʻlgan. Bu davr shaharsozligi Dalvarzintepa, Zartepa, Koʻhna Termiz va uning tarkibiy qismlari hisoblangan Qoratepa, Fayoztepa, oʻrnidagi diniy inshootlar orqali yaxshi oʻrganilgan.

Surxon vohasining Kushon davri shaharlari maʼmuriy, iqtisodiy markaz boʻlish bilan bir qatorda diniy markazlar vazifasini ham oʻtagan (Koʻhna Termizdagi Qoratepa, Fayoztepa, Zartepa, Ayritom va Dalvarzintepadagi buddaviylik ibodatxonalari). Kushonlar hukmronligining ilk bosqichidayoq, Koʻhna Dunyo davlat va xalqlarini iqtisodiy va madaniy jihatdan bogʻlab turgan qitʼalararo savdo yoʻli, ya'ni Buyuk ipak yoʻli toʻliq shakllangan va bu xalqaro savdoda Kushon davlati ham muhim oʻrin egallagan.

Xolchayon, Dalvarzintepa, Koʻhna Termiz, Zartepa, Ayritom kabi obidalardan qazib ochilgan dunyoviy va diniy yoʻnalishlarda yaratilgan haykallar, xilma-xil moʻjaz sanʼat turlari, turli-tuman hunarmandchilik buyumlari oʻzining takrorlanmasligi bilan ajralib turadi.

Jizzax shahri Sibir, Qozogʻiston, Shosh, Fargʻona, Samarqand, Buxoro, Xuroson kabi yirik shaharlar oʻrtasida darvoza vazifasini bajargan. Qadimda Fargʻona, Oʻratepa, Zomin orqali Mirzachoʻlni kesib, toʻgʻri Qozogʻiston orqali Nurotaga oʻtgan uchta karvon yoʻli Jizzaxda qoʻshilib, Ilonoʻtdi darasidan Samarqand darasiga, soʻng vohasiga oʻtgan. Bu yoʻllarning Jizzaxga kiraverishidagi darvoza, qalʼalar Kushon podsholigi davrida, yaʼni I-IV asrlarda qurilgan. Demak, shahar nomi ham oʻsha qalʼalar nomi bilan bogʻliqdir.

Bu qalʼaning asli nomi Dizak boʻlgan. X asrlardagi yozma manbalarda ham shunday deb yozilgan. Joy nomlarini oʻrganuvchi olimlarning ilmiy xulosalariga koʻra, “Diz” — qadimgi soʻgʻd tilida “qalʼa”, “istehkom” demakdir, “ak” esa bizdagi “cha” qoʻshimchasiga toʻgʻri keladi. Demak, Dizak “qalʼacha” degani. Bu toʻgʻrida yana shuni aytish mumkinki, XII-XVII asrlarda Xurosonda ham yuqori Dizak va Quyi Dizak degan qishloqlar boʻlganligi manbalarda qayd etilgan. Dizak shahri haqida arab geografi va sayyohi al-Maqdisiy — “Katta shahar, undan daryo oʻtadi, bozorida Jome Masjid bor”, deb yozgan. 983 yilda yozilgan “Hudud ul-



Olam” asarida “Jizzax — kichik bir shahar, suv bo‘yida joylashgan, yonida bozori bor, katta savdo bo‘ladi”, — deb ko‘rsatilgan.

Kushon davriga oid xum, tog`ora, ko`za, xanjar, qilich, sopol idishlar, oddiy taqinchoqlar, tanga pullar haqida «Surxondaryo», «Termiz» kitoblarida, shuningdek, o`quvchilarning darsliklarida batafsil bayon qilingan.

Arxeolog M.Masson, Ye.Pugachenkova va boshqa qadimshunoslarning ilmiy xulosasini bilardik, xolos. Biroq keyingi yillarda Budda diniga doir topilmalar ham hammani qiziqтира boshladi. Dalvarzintepa shahristoni yaqinidan Budda ibodatxonasi qoldiqlari, Buddaning jahon xalqlari e'tibori shu topildiqlarga qaratildi boshi, Bodisatvaning mahobatli haykali chiqqanidan so`ng. Yaponiyaning Nara shahrida ana shu topildiqlar ko`rgazmasi namoyish etilganda Kunchiqar davlat fuqarolari lolu hayratda qoldilar. Negaki, ular Budda diniga mansub kishilardir. Shuningdek, Dalvarzintenega yaqin joydagi Xolchayon, Budrach shaharlari topildiqlaridagi Budda diniga doir ashyolar ularning hayratini yanada oshirdi.

Dalvarzintepa, Xolchayon va Budrach topildiqlariga yaponlarning qiziqishi Budda ibodatxonasi, Budda boshi va Bodisatvaning ulkan haykali tufayligina ortgani yo`q. Balki boshqa namunalar ham yaponlarning diqqatini bizga — O`zbekistonga, xususan, Surxondaryoga qaratdi. Ular bu yerlardagi xarobalarda Buddaga mansub yana qancha-qancha ma'lumotlar topilishiga umid bog`ladilar. Fayoztepa ibodatxonasi 2003-2006 yillarda Surxondaryoga Yaponiya, Rossiya, Fransiya va Germaniya qadimshunoslari kelib, Dalvarzintepa, Xolchayon, Budrach, Eski Termiz, Kampirtepa, Fayoztepa, Qoratepa va boshqa obidalarni qazishni davom ettirishdi hamda ko`p yillik tadqiqotlar “tashxis”ini qo`yishdi. Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy universiteti hamda Termiz Davlat universitetining qadimshunos olimlari bu tadqiqotlarning boshida turishdi. Ular safida O`zbekiston Milliy universiteti aspiranti Jaloliddin Annaev, Termiz Davlat universiteti o`qituvchisi, tarix fanlari nomzodi To`xtash Annaev, Surxondaryo arxeologiya muzeyi direktori Ismoil Botirov va boshqa olimlar bor edi. Shunday qilib, Fayoztepadan ham Budda ibodatxonasi, Bodisatva haykali va boshqa narsalar topildi. Eng muhimi— bu ibodatxona juda ko`p maydonni egallagan, shuning uchun olimlar Budda diniga oid eng yaxshi topildi q shu, deb tan olishdi. Pirovardida Buddadini shu yerdan Xitoy, Hindiston, Yaponiyaga yoyilgan degan to`xtamga kelishdi. Shuning uchun O`zbekiston Madaniyat va sport ishlari vazirligi hamda YuNESKOning respublikamizdagi vakolatxonasi va Yaponiya ilmiy-madaniy markazlari hamkorligida Fayoztepada ana shu topilgan ibodatxonaning kichik namunasi barpo qilindi.



Qoratepa tilga kirdi Surxon zamini - obidalarga juda boy. Ilmiy tadqiqotlar vohada bundan to'rt- besh ming yillar ilgari dehqonchilik, hunarmandchilik nihoyatda rivojlangani, Kushon, Baqtriya va Chag'oniyon davlatlarining san'ati, madaniyati nechog'li yaxshi darajada bo'lganidan xabar beradi. Aytishlaricha, o'sha paytlardayoq sug'orish inshootlari, hatto quvurlardan foydalanilganki, bunday dalillar ajdodlarimizning aql-zakovati yuksak bo'lganidan dalolatdir. Biroq eramizdan oldingi 2-1 minginchi yillarda buddaviylik ham kamol topganligi ma'lum. Fayoztepada arxeologik qazilmalar nihoyasiga yetmay turib, uning yonidagi qishloqda, ya'ni Qoratepada tag'in Budda ibodatxonasi, Budda haykali va boshqa ashyoviy dalillar topilgani hammani hayratga soldi. Xususan, buddaviylarning shamchirog'i yondi. Ilgari Dalvarzintepa, Xolchayon, Budrach, Kampirtepa, Jarqoton, Eski Termiz qazishmalarida topilgan ashyolardan ham bu yerdagilar qadimiy ekanligi isbotlandi. Qadimshunos olim Eduard Rtvladze, yapon tarixshunosi va arxeologiya ishlari bo'yicha olim Kyuzo Kato ham shunday fikrdalar. Hatto Kyuzo Kato bu yerdagi tikanli gulni ko'rib, quvonchdan ko'ziga yosh keldi. U Yaponiya davlati madhiyasini aytib, Budda topildiqlarini tavob kilib, 84 yoshda bo'lsa ham o'zini yosh bolalarday yengil tutdi. Nega deysizmi? Chunki, agar shu ibodatxona, haykal va boshqa ashyolar chindan ham dalil bo'lib, buddaviylik shu yerdan boshlangani isbotlansa, yaponlargina emas, hatto xitoyliklar, hindistonliklar singari Budda diniga mansub boshqa kishilar ham shu yerga kelib, sajda qila boshlaydilar. Kyuzo Kato yangiliklarni Yaponiyada ma'lum qilish, yiliga bir marta chiqadigan "Oyxonum" jurnalida chop etish, yangi topildiqlar asosida ko'rgazma tashkil etish niyatida yurtiga jo'nab ketgan edi. U hademay yana Surxondaryoga kelib, boshlagan ishini davom ettiradi.

Kyuzo Kato vataniga jo'nab ketayotganida: — Men sakson to'rt yoshga kirdim, umrimni yashab bo'ldim. Biroq Qoratepa qazishmalarida qatnashganim bois, vafot etsam ham o'zimni baxtiyor his qilaman,-degandi. Darvoqe, Fayoztepa va Qoratepa tilga kirib, ko'p narsalarga aniqlik kiritar ekan, bu o'zbek va yapon xalqlarining juda qadimdan do'stona va ahil yashab kelganligiga yaqqol dalildir.

Xulosa

O'rta Osiyo, jumladan Tojikiston hududida ibtidoiy odam bundan taxminan 200 ming yil avval yashagan. Shimoliy va janubiy Tojikistonda so'nggi paleolitga oyid qurollar topilgan. Ibtidoiy jamoa tuzumi Tojikiston hududida milloddan avvalgi 8 -7 asrga qadar mavjud bo'lgan. Milloddan avvalgi 8 -7 asrlarda temir davriga o'tish boshlandi. Ijtimoiy va mulkiy tabaqalanish paydo bo'lgan. Milloddan avvalgi 6 – 4 asrlarda Tojikiston hududida Eron davlati xukmronligi o'rnatildi.



Milodning boshlarida yirik sug`orish kanallari qurildi, shahar xayoti, xunarmandchilik yuqori darajaga ko`tarildi, ayniqsa boshqa mamlakatlar bilan savdo tez rivoj topdi. Yunon yozuvi asosida kushon yozuvi paydo bo`ldi. Bu davrda Tojikistonga Xindistondan buddizm, Erondan moniylik kirib keldi. Ammo zardushtiylik asosiy din bo`lib qolaverdi. 6 – asr o`rtalarida tojikiston Turk xoqonligi tarkibiga qo`shib olindi. 8 – asr o`rtalariga kelib O`rta Osiyoni arablar bosib oldi. O`rta Osiyoning arablar tomonidan bosib olinishi natijasida islom dini hukmron din bo`lib qoldi, ko`pgina madaniyat yodgorliklari, shaharlar yoq qilib tashlandi. O`rta Osiyo xalqlarining iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti vaqtincha sekinlashdi. Shimoliy Baqtriya - Ayritymdagi, Fayoztepadagi, Qoratepadagi qator buddaviylik yodgorliklardan ishonchli stratigrafik sharoitda topilgan. Bularning bari buddaviylikning O'rta Osiyoda yoyilishi jarayonini quyidagi tarzda qayta tiklash imkonini beradi. Aftidan ayrim buddaviy da'vatchilar bu ta'limotni Baqtriyada miloddan avvalgi II-I asrlarda yoq yoyishni boshlagan b'olishlari ehtimol. Lekin shimoliy Baqtriyada budda diniy inshootlarning ommaviy qurilishi, binobarin, ta'limotning mintaqada yoyilishi ning milodiy I asrning ikkinchi yarmigagina bog'lash mumkin. Bu Baqtriyaning hamda o'sha davrda Hindistonning yagona Kushonlar davlati tarkibiga kirgani bilan izohlanadi. Arxeologiya materiallari Ko'hna Termiz mintaqada buddaviylikning eng yirik markazlarida bo`lganligidan dalolat bermoqda .

Eski Termizdan 120 chaqirim shimoli-sharqda (hozirgi Sho`rchi tumanida) joylashgan. Dalvarzintepadan topilgan salkam 36 kg oltin xazina, ko`hna shaxmat donalari, hunarmand va kulollar uyi , allaqanday ibodatxonalar, dalvarzinliklar qabristoni - novus, 2 ta ajoyib budda inshooti bu shaharning bir vaqtlar Kushon saltanatining dastlabki poytaxt shahri bo`lganidan dalolatdir. Dalvarzinda budda ibodatxonasi birinchi marta 1967-yilda topilgan. Yodgorlikdan topilgan tangalar Kushon podshosi Kadfiz I (milodning 1-asri) davrida zarb qilingan. II asr Kushon podshosi Vasudeva kulohda o`zi tasvirlangan tanga zarb qildirgan. Dalvarzindagi ikkinchi ibodatxona shahar tashqarisidagi budda ibodatxonasiga nisbatan kattaroq. Bu erda 1983 – yilda qazilmalar boshlangan. Topilgan yirik Buddha va Badxisatva haykallarini Hindistonning shimoli-g`arbidagi Gandxara budda haykaltaroshligi maktabi buddaviy dini tarqalgan barcha hududlarda qabul qilingan an`analar asosida tayyorlangan. Miloddan avvalgi II asrning ikkinchi yarmida Xitoy manbalarida ta`kidlanishicha Sharqiy Turkiston hududlarida yashovchi yuechji qabilalari (aslida massagetlar) o`z qo`shnisi xunlar tazyiqiga uchrab ularning siquviga bardosh berolmay g`arb tomonga siljiydilar. Yuechjilar Issiqko`l atrofida



sak qabilalariga uchrab ularni janubi ga'rb tomonga suradilar. Biroq yuechjilar usun qabilalari zarbasiga uchrab, janubga siljib miloddan avvalgi 130-yillarda So'g'diyona hududiga kirib keladilar. Yuechjilar Xitoy tarixchisi Chjan Syan ta'kidlashicha So'g'diyonadan Baqtriyaga yuradilar va Baaqtriyadagi yunonlar hukmronligini ag'daradilar. Xitoy manbalarida ta'kidlanganidek, yuechjilar beshta asosiy xonadonga mansub edilar: Guysh uan (Kushon), Xyumi, Shuanmi, Xise, Dumi. Ularning har biri qariyb 100 yilcha alohida-alohida siyosiy kuch, hokimlik bo'lib, yagona hukmdorga bo'ysunmagan holda faoliyat yuritadilar.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Альбаум Л. И. Балалык-тепе. Ташкент. Издательство Академия наук Уз ССР, 1960.
2. Аннаев Т. Ангор ёдгорликлари. Самарқанд. Ўзбекистон Фанлар Академияси Археологияинститути нашри. 1991.
3. Боровкова Л. А. Кушанское царство (по древним китайским источникам). М., 2005,
4. Бичурин. Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии вдревне времена. Т. 2. –М.-Л., 1950.
5. Вертоградова В. В. Индийская эпиграфика Каратепе. М.; Наука, 1996.
6. Yusupovich, Koshakov Safarali. "Material Culture in Zoroastian Religion." *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education* (2994-9521) 2.6 (2024): 715-719.
7. Юсупович, Кўшоқов Сафарали. "ЗАРДУШТИЙЛИК ДИНИДА ДАФН МАРОСИМЛАР ТАЛҚИНИ." *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH* 3 (2023): 201-208.
8. Yusupovich, Kushakov Safarali. "THE ROLE OF ANCIENT BACTERIA AND MARGIA IN THE ESTABLISHMENT OF ZARDUSTIYA." *Chief Editor* 12.
9. Юсупович, Кўшоқов Сафарали. "ЗАРДУШТИЙЛИК ДИНИ ТАЛҚИНИ ВА УНИНГ МОДДИЙ МАДАНИЯТДА АКС ЭТИШИ." *Scientific Impulse* 1.12 (2023): 246-251.
10. Kushakov, Safarali. "EARLY RELIGIOUS SIGNS OF THE TERRITORIES OF UZBEKISTAN." *Research and Implementation* 1.3 (2023): 71-77.
11. Yusupovich, Kushakov Safarali. "FACTORS WHICH ARE THE BASIS OF THE FIRST RELIGIOUS VIEWS." *Scientific Impulse* 1.11 (2023): 140-145.
12. Юсупович, Кўшоқов Сафарали. "ЗАРДУШТИЙЛИК ДИНИ ТАЛҚИНИ ВА УНИНГ МОДДИЙ МАДАНИЯТДА АКС ЭТИШИ." *Scientific Impulse* 1.12 (2023): 246-251.
13. Yusupovich, Kushakov Safarali. "Orta Osiyoda ilk diniy qarashlarning oziga xosligi." *Scientific Impulse* 1.11 (2023): 115-120.
14. Юсупович, Кўшоқов Сафарали. "ЗАРДУШТИЙЛИК ДИНИ ТАЛҚИНИ ВА УНИНГ МОДДИЙ МАДАНИЯТДА АКС ЭТИШИ." *Scientific Impulse* 1.12 (2023): 246-251.